



THE INFLUENCE OF WESTERN LITERATURE ON THE STORYWRITING OF THE INDIAN WRITER NIRMAL VARMA

Shamsiqamar Tilovmurodova

*Doctoral student of Tashkent State University of Oriental Studies
Tashkent, Uzbekistan*

Abstract. This article provides a comprehensive survey of the short stories created by the famous Hindi writer Nirmal Varma. About 50 of Varma's short stories are carefully studied and grouped by theme and plot. By analyzing Varma's storytelling skills, vivid scenes of character dynamics, the brilliant representative of Hindi literature, the role of western literature, which influenced the creation of multifaceted themes and ideas, and its influence on Indian literature is analyzed.

Keywords. Nirmal Varma, story writing, theme, idea, theme, landscape image, “new story”, Western literature, Eastern literature, influence of Western literature on Eastern literature.

G‘ARB ADABIYOTINING HIND YOZUVCHISI NIRMAL VARMA HIKOYANAVISLIGIGA TA’SIRI

*Tilovmurodova Shamsiqamar
Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti tayanch doktoranti
Toshkent, O’zbekiston*

Annotatsiya. Ushbu maqolada taniqli hind yozuvchisi Nirmal Varma tomonidan yaratilgan qisqa hikoyalari keng qamrovli tadqiq qiladi. Varmaning 50 ga yaqin qisqa hikoyalarini sinchkovlik bilan o‘rganib chiqiladi va ularni mavzu hamda sujetga asosida guruhlarga ajratiladi. Hindiy adabiyotining yorqin vakili hisoblangan Varmaning hikoya qilish mahorati, xarakter dinamikasi jonli manzaralarini tahlil qilish orqali ko‘p qirrali mavzular va g‘oyalarning yaratilishiga ta’sir ko‘rsatgan g‘arb adabiyotining o‘rni hamda hindiy adabiyotiga ta’siri tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar. Nirmal Varma, hikoya yozish, mavzu, g‘oya, mavzu, manzara tasviri, “yangi hikoya”, g‘arb adabiyoti, sharq adabiyoti, g‘arb adabiyotining sharq adabiyotiga ta’siri.

Аннотация. В этой статье представлен всесторонний обзор рассказов, созданных известным писателем хинди Нирмалом Вармой. Около 50 рассказов Вармы тщательно изучены и сгруппированы по темам и сюжетам.

На основе анализа повествовательного мастерства Вармы, ярких сцен динамики характера, яркого представителя литературы хинди, анализируется роль западной литературы, повлиявшей на создание многогранных тем и идей, и ее влияние на индийскую литературу.

Ключевые слова: Нирмал Варма, писательство, тема, идея, сюжет, образ ландшафта, “новый рассказ”, Западная литература, восточная литература, влияние западной литературы на восточную литературу.

Kirish. XX asr ikkinchi yarmining taniqli va o‘ziga xos badiiy uslubga ega Nirmal Varma oxirgi yarim asr davomida hindiy tilida yozilgan adabiyotning rivojlanishiga ajralmas hissa qo‘sghan hamda hindiy adabiyotda o‘ziga xos o‘ringa ega yozuvchilardan hisoblanadi. Nirmal Varmanning ijodiy merosining asosini uning hikoyanavisligi hisoblanadi. Chunki adibning hayot yo‘lidagi har bir bosqichlardagi tajribasi va falsafasi hikoyalarining ich-ichigacha kirib boradi. Adibning zamonaviy G‘arb adabiyoti bilan jonli tanishuvi, ham yoshligidan tanish hind xalqining va o‘zi yashagan davrning boy adabiy merosi dunyoqarashida o‘zi ijod qilgan davrdagina emas aksincha hali-hunuzgacha noyob falsafasi hikoyalarida turli ko‘rinishlarga asosida ochilib berilgan. Adib hikoyanavisligi markazida o‘lim, yolg‘izlik, ozodlik, qo‘rquiv, begonalashuv, muhojirlik va ruhiy shikastlanish kabi mavzular egallagan. Adibning hikoyanavisligini batafsil tahlil qilish uning noyob falsafasini ochishga yordam beradi. Yozuvchining ushbu falsafasining shakllanishiga esa bir o‘z navbatida milliy adabiyot bilan birga g‘arb adabiyoti bilan chuqr tanishish hamda ushbu adabiyotlarni tahlil qilish orqali erishilganligi shubhasiz.

Asosiy qism. Hindistonning Jahon hamjamiyati bilan hamkorligining rivojlanishi jahonda mavjud muhit bilan bevostida tanishish, dunyoning o‘zgarayotgan ijtimoiy-siyosiy vaziyatini mushohada qilish, jahon adabiyoti bilan aloqa o‘rnatish hamda Yevropada taraqqiyot bosqichiga chiqqan norealistik hamda mavjud reaslistik oqimlar bilan tanishuv Hindiston xalqlari adabiyotida yangi burilish yasadi. Albattaki, Yevropa va AQShda rivojlangan bu adabiyot hindiy adabiyotiga kurtak yozishiga va ommalashishiga bir qancha sabablar bor edi. Bu esa mamlakatning parchalanishi bilan birgalikda mustaqillikdan keyin tushkunlik kayfiyati hukm surgan xalq xohish-istaklari bilan bevosita bog‘liq edi. Dekadans estetikasidan ta’sirlangan yosh qalamkashlar o‘sha davrda mavjud adabiyotda hukm surgan qadriyatlarni inkor eta boshlashdi. An’anaviy estetikadan qat’iy uzoqlashishni, yangi tasvir vositalardan foydalanshni, badiiy ijodning g‘oyaviy-estetik asoslарini qayta ko‘rib chiqishga dav’at eta boshladilar. Bu kabi isyonkor tabiat, adabiyotni yangilash yosh ijodkorlarning e’tiborini tortib ular tomonidan sekin-asta harakatga aynana boshladi. Shu asnoda, hindiy adabiyotida modernizm yo‘nalishining shakllanishi XX asrning 20-yillarida Bengal, Urdu, Hindiy adabiyotlarida sezila boshlab XX asrning ikkinchi yarmida taraqqiyot bosqichiga chiqqa boshlashi bilan xarakterlanadi. G‘arb jamiyatidagi o‘zgarishlarning adbiyotga ta’siri butun g‘arb adabiyotlariga kuzatilganligi, asta-sekin sharq adabiyotiga ham kira boshlaydi. Bundan esa, hindiy adabiyot ham mustasno bo‘lmadi. Ushbu kayfiyat ta’siridagi hind yozuvchilari san’atni moddiy dunyodan uzoqlashtirib bo‘lmasligini, shuning uchun “yangi hikoya” harakati ostida hind jamiyatidagi o‘rtaligining shakllanishiga qurʼonliq qilishiga qarab bo‘lganligini hisoblanadi.

sinfga hayotini ochib berishga qaratilgan mavzular: mamlakat parchalanishi, urush oqibatlari, oila parchalanishi, qadriyatlarning yemirilishi, ishonchszilik, g‘amginlik, yolg‘izlik, begonalashuv kabi o‘sha davrda sodir bo‘layotgan jamiyatdagi o‘zgarishlar bilan birgalikda bunday muammolarning kelib chiqish sabablari hamda ularning jamiyatga ta’sirini qalamga olishadi. Nafaqat Hind adabiyoti balki jahon adabiyotida ham o‘z o‘rniga ega modern uslubida ijod qiluvchi mahoratli hind yozuvchilari Rajendra Yadav, Kamleshvar, Mohan Rakesh, Bhisham Sahni hamda Amarkant kabi ijodkorlar bilan birgalikda Nirmal Varma 1950-1960-yillar oralig‘ida gullab-yashnagan hindiy badiiy adabiyotining sermabsul davri “নই কহানী” (“yangi hikoya”) yo‘nalishi asoschilaridan biri hisoblanad[4, b.146].

Taniqli hind tanqidchisi Namvar Singning fikriga ko‘ra, hindiy tilidagi “yangi hikoyalar” o‘sha davrdagi hind yozuvchilari va tanqidchilari orasida katta bahslashuvlarni keltirib chiqaradi. Adabiy jurnallarning sahifalarida qizg‘in munozaralar avj olib mazkur oqimning yutuqlari va kamchiliklari bo‘yicha baholashga bo‘lgan turli yondashuvlar ma’lum qilinadi[6, b.85].

Bu yo‘nalishning yorqin namoyondalarining hikoyalari mazmun va shakl jihatdan bir-biridan farq qiladi. Yozuvchilarining hikoyalarida davr muammolariga bo‘lgan jamiyat munosabati turlicha ekanligini yaqqol sezish mumkin. Mustaqillikka erishgan jamiyatda paydo bo‘lgan bir qancha masala va muammolarning zudlik bilan adabiyot markaziga olib kelina boshlandi. Mustamlaka zulmidan ozod bo‘lish insonlar ongida ikki xil qarama-qarshilikni vujudga keltirdi: ozodlik hissidan ko‘ra endi qanday qilib yashashning yechimini topolmagan xalq kayfiyati hamda mamlakatning bo‘linishiga qanday munosabat bildirish kerak. Buning ta’siridan “chuqur parchalanish” tuyg‘usi uyg‘ondi. Shu asnoda, tushkunlik insonlar hayotining ajralmas qismiga aylandi. Mamlakatdagi muammolarlar insonlar ongida ishonmaslik kayfiyatining ortishi va nima qilish kerak degan savollarga javob topolmayotgan muhit yozuvchilarning asarlarida yoritila boshladi.

Adib hikoyalarida mufassal yoritilgan parchalanishdan keyin hindiy adabiyotida qalamga olingan mavzular: mamlakat parchalanishi, urush oqibatlari, hayot tarzining shiddatli rivojlanishi, yolg‘izlik, ichki yemirilish, inson taqdiri, hayot mohiyati, ma’naviy-axloqiy yemirilish, insoniy qadriyatlarning yemirilishi, begonalashish, tegishli bo‘lmaslik, ildizdan uzoqlashish, muhojirlilik va ruhiy shikastlanish kabi mavzular zamon va makonning aniqligi va noaniqligi, real voqelik va yangi voqelik qorishmasi, qatlamlili mazmum, o‘zgargan obrazlar, go‘ya va qarashlarning turli razmlar bilan ifodalanishi, mazmun va go‘yani ochib berishda makon va zamon tasviri asosida tahlilga olindi.

Natijalar va muhokamalar. Nirma Varma ijodiy merosi jamiyatning dolzarb ijtimoiy-axloqiy muammolarini haqqoni y tasvirlash bilan birgalikda qalami o‘tkir qalamkashlar yoritib bera oladigan falsafiy muammolarga qo‘l urganligi bilan ahamiyatli hisoblanadi. Adib ijodining mavzu hamda go‘ya o‘zgarishi bilan cheklanmay o‘ziga xos badiiy tasvir vositalaridan foydalanganligi uning asarlarining badiyilagini yanada oshirib bergan. Hindiy adabiyotshunosi, tanqidchi Richa Anjan “নই কহানী” (“yangi hikoya”) yo‘nalishi vakillari hikoyanavisligida kuzatilgan

mavzulardan nisbatan farq qiladigan Nirmal Varmaning hikoyalarini 4ta asosiy guruhga ajratib beradi:

1. To‘liq hind turmush tarzi hikoyalari: “Kundalik o‘yin”, “Mayanining haqiqati”, “Uchinchi guvoh”, “Zulmatda”, “Rasmlı otrkitka”, “Setabrnning bir oqshomi”, “Sevishganlar”, “Dahliz”, “Rishtalar”.

2. Yarim hind turmush tarzi hikoyalari: “Qushlar”, “O‘tgan yozda”, “Terminal”.

3. Yarim yevropa turmush tarzi hikoyalari: “Avval”, “Yonayotgan buta”, Londondagi bir tun”, “Farq”, “Uning xonasida”, “Ikkinchidunyo”, “Hafta yakuni”, Quyoshning bir bo‘lagi”, “Kishi va qiz”.

4. Yarim yevropa turmush tarzi hikoyalari: “Bir kunlik mehmon”, “Ikki xonadon”.

Adabiyotshunosning hikoyalarning tasniflashdagi bu metodi ba’zi bir qarshiliklarga qaramasdan maql hisoblanib, hikoyalardagi voqelik makon jihatdan Hindistonda hamda Yevroda sodir bo‘ladi[5, b. 43]. Aksariyat hind tanqidchilar yozuvchining aynan bu kabi bayon qilish uslubini adibning Yevropada o‘tkazgaan hayoti ta’siri ostida deb bilishadi. Bu kabi qarashlar qisman o‘zini oqlaydi, chunki uning hikoyalardagi peyzaj tasviri juda jonli bo‘lganli sababli ham rus olimlari Nirmal Varmadek muhit tasvirlashini o‘ziga xos romantik uslubiyati doirasida amalga oshiradigan yozuvchilar sanaoqli yozuvchilar qatorida sanab o‘tadi[4,b.157].

Adabiyotshunos Richa Anjan yozuvchi hikoyalarini sujet doirasida tasniflashga ham urinib ko‘radi. Uning nuqtai nazari bo‘yicha ‘Nirmal Varma hikoyalarining qahramonlar doirasida yana bir tasnif doirasiga kirgizish mumkin - birinchisi oilaviy, ikkinchisi shaxsiy va uchinchisi, unda na oila, na shaxs mavjud, bu uchchala guruhga chegarali nazar bilan qarash kerak degan fikr bildiradi tanqidchi. “Ko‘pchilikning fikriga qaraganda Nirmal Varmaning hikoyalarida oila va jamiyat emas, balki shaxs yoritiladi. To‘g‘ri, uning hikoyalarida jamiyat Premchand hikoyalardagi kabi shaklda emas, lekin jamiyat butunlay yo‘q deb aytish mumkin emas. Shaxs jamiyatning bir bo‘lagidir, shuning uchun qayerda shaxs mavjud bo‘lsa, u yoki bu shakldagi jamiyat albatta mavjud bo‘ladi. Oilaga kelsak, Nirmal Varmaning hikoyalarida oila tushunchasi aniq va ravshan mavjud [5, b. 44].”

Shu asnoda, yozuvchi hikoyalarida inson, oila va jamiyat tushunchalarini chuqur mushohada ostiga olganligi seziladi. Nirmal Verma ham zamonaviy G‘arb adabiyoti bilan jonli tanishuvi, ham yoshligidan milliy adabiyotni chuqur o‘zlashtirganligi dunyoqarashida eksiztensializm falsafasining turli ko‘rinishlariga murojaat qilishiga asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Ba’zi adabiyotshunoslari hamda tanqidchilar uning asarlarini ateistik eksiztensializm asosida yozilganligiga Shubha qilishsa ham, adib hikoyalarini diniy hamda ateistik ekzistensializmga doirasiga kirgizishni maql deb hisoblanmadni, chunki uning asarlarida muammolarni ochib berish uchun dinga murojaat yoki aksi kuzatilmadi. Ammo uning ayanan bu oqimda yozishiga sababchi bo‘lgan ingliz yozuvchisi Virginya Vulfning ta’siri juda kata bo‘lib, u adibani ustozlaridan biri sifatida e’zozlagan Yozuvchi Vulf qalam ostiga olgan umuminsoniy mavzularga o‘z falsafasi orqali yondoshib, yangi qarashlarni hikoyalari orqali bildirgan [7, b.23]. Varmaning nasri

voqelikni individual, yuksak badiiy idrok etishi bilan ajralib turishi bilan birqalikda o‘ta shaxsiy, ta’riflab bo‘lmaydigan, o‘z yolg‘izligini his qilish va bu holatga ta’sir uyg‘unligidan yaratilgan o‘zgacha bir kayfiyat va ruhiy holatni ochib berish asosiga qurilgan.

Adibning “Паріде” (“Qushlar”, 1959); “जलती झाड़ी” (“Yonayotgan suv”, 1965); “पिछली गर्मियों में” (“O’tgan yozda”, 1968); “बीच बहस में” (“Munozara o‘rtasida”, 1973); “मेरी प्रिय कहानियां” (“Mening sevimli hikoyalaram”, 1973); “कव्वे और काला पानी” (“Qarg‘a va qora suv”, 1983); “प्रतिनिधि कहानियां” (“Saylanma hikoyalari”, 1988); “सूखा और अन्य कहानियां” (“Qurg‘oqchilik hamda boshqa hikoyalari”, 1995); “धारे” (“Rishtalar”, 2003); kabi hikoya to‘plamlaridagi ellikka yaqin hikoyalari tadqiq qilish jarayonida hikoyalari mavzu jihatdan guruhga ajratilish maql deb topildi:

1. Inson taqdiri va hayot mohiyati mavzusidagi hikoyalari: “Bir kunlik mehmon”, “Kundalik o‘yini”, “Mayaning haqiqati”, “Zulmatda”, “Ikki xonadan”, “Qushlar”, “Uchinchi guvoh”, “Setabrning bir oqshomi”, “Dahliz”;

2. Ma’naviy-axloqiy muammolar ko‘tarilgan hikoyalari: “Sevishganlar”, “Zulmatda”, “Rasmlı otrkitka”, “Dahliz”, “Londondagi bir tun”, “Kishi va qiz”, “Setabrning bir oqshomi”;

3. Qalban ozodligi mavzusidagi hikoyalari: “Zulmatda”, “Bir kunlik mehmon”, “Ikki xonadan”, “Yonayotgan buta”, “Tafovut”, “Qushlar”;

4. Ildizdan uzoqlashish, muhojirlilik mavzusidagi hikoyalari: “Qushlar”, “O’tgan yozda”, “Terminal”, “Bir kunlik mehmon”, “Tafovut”, “Itning o‘limi”, “Ikki xonadan”;

5. Begonalashuv mavzusidagi hikoyalari: tahlil natijasida hikoyalarining barchasida (qisman yoki to‘liq) bu mavzu yoritilgan deb hisoblandi.

Nirmal Varma hikoyanavislikda hind adabiyotidagi mavjud mavzular bilan o‘z tajribasini qorilishtirib, butun umri davomida shakllantirgan falsafasi orqali tahlilga olib shaxsiy tajribalari bilan boyitadi. Norealistik uslubda ijod qilgan atoqli hikoyanavislardan Yajendra Yadav, Kamleshvar, Ilanchandra Joshi nasrchipiligida **प्रयोगवाद** (Eksperimentalizm) ustunlik qilgan bo‘lsa, adibning nasri esa **अस्तित्ववाद** (eksperimentalizm) dan sug‘orilgan murakkab mavzularini qamrab oladi. Adib hikoyanavislidagi nson taqdiri va hayot mohiyati hamda ma’naviy-axloqiy muammolar mavzulari arab adabiyotida ham xuddi shu davrda modernismning arab adabiyotida rivojlanayotganligiga bag‘ishlangan o‘zbek olimasi D.Muxiddinovning tadqiqotlarida tahlilga olingan norealistik uslubda ijod qilgan Jurj Salim hikoyanavislidagini markaziy mavzularidan hisoblanadi [1, b.27]. Nirmal Varmaning hikoyalari o‘ziga xosligi tilning yangi uslublari bilan birga simvolizm va ekzistentsializm oqimlari asosida yozilgan bo‘lib, 1960-yillar hindiy adabiyotida mutlaqo yangi yozish uslubini ochib berdi.

Uning hikoyalari tahlil uchun juda murakkab bo‘lib, yolg‘izlikning asl tajribalari va hissiy iztirob yoki ichki inqirozning o‘ta individualistik ifodasini ko‘rsatib bergen. Uning hikoyalaridagi maqsad shaxsning ongiga qaratilgan: uning umidsizliklari, muloqotning yetishmasligi, ajralish, yolg‘izlik kabi kechinmalar orasida inson taqdiri va hayot mohiyati bir-biriga zid qo‘yiladi. Adibning norealistik

hikoyalarida qahramonlarni dunyoning qay burchagida bo‘lmasin istalgan odamni zamon va makon, muhitdan uzoqlashtirib asosan ularning borlig‘iga, o‘zligiga ahamiyat berish xos bo‘lib, ularni abstraktashtirib ularni asosan ismsiz tarzida berishi uning badiiy asar xususiyati darajasiga ko‘targanligi; hayot, o‘lim, qayg‘u, dard, taqdir, jamiyat, yolg‘izlik kabi muammolarga javob topishga intilgan urinishlari o‘zining yangi tasvir uslubi doirasiga kiruvchi universal ramzlar tili, shaxsiy ramzlar tili, peyzajlarni ramziylashtirish usuli, inson ruhiyatini tadqiq qilishda ong oqimi kabi yangi usullardan foydalangan.

Xulosa. Hindiy adabiyotiga qo‘shgan misli ko‘rilmagan hissasi bilan Nirmal Varma kabi hindiy tilida ijod qiluvchi yodda qoladigan adiblar orasida o‘ziga xos o‘ringa ega edi. Adib hikoyanavisligi kitobxonlarga o‘z-o‘zini his qilish va tahlil ostiga olish imkonini beradigan uslubiyati va falsafasi edi. Asarlarida yolg‘izlik dunyosida o‘rnashib olgan ko‘plab qahramonlar mushohadaga olingan. Yozuvchining hikoyalari aksariyati tipik obrazlar bo‘lishiga qaramasdan kitobxonlarning adabiy chanqog‘ini qo‘zg‘atadi, o‘yga cho‘mib qo‘yadi. U o‘z zamondoshlari va undan keyingi davr adiblardan farqli o‘laroq uning asarlari-dan sanoqli yozuvchilar ohib bera oladigan mavzu va g‘oyalar berilgan edi. Uning asarlari ustida olib borilishi kerak bo‘lgan munozaralar darajasi, tanqidchilarni shoshirib qo‘yardi. U adabiyot va san‘atga fidokorona mehnat qilgan, umr bo‘yi o‘z qadr-qimmatiga, qadriyatlarga sodiq qolgan ijodkorning ramziga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muhiddinova D. Badiiy tafakkur takomili. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015. – 209 b.
2. Xodjayeva T.A., Muxibova U.U. Hindiston adabiyoti. – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2020. – 552 b.
3. Xodjaeva T.A. Hindiston adabiyotida zamonaviy yo‘nalishlar va oqimlar. –T.: ToshDSHI, 2012. – 290 b.
4. Цветкова С.О. Очерки истории литературы Индии: X-XX вв. – СПб.: Санкт-Петербургский Государственный Университет, 2014. – 320 с.
5. ଶକ୍ତ୍ରା ଅ .ନଈ ଧାରା. – ଦ. :ନଈ ଧାରା, 2013. – 245 ପ.
6. Singh N. Indian literature since Independence. – D.: Sahitya Academy, 1973. – 600 p.
7. Vineet G. Here and Hereafter: Nirmal Verma’s Life in Literature. – D.: Penguin Random House, 2022. – 136 p.